

## QAROR QABUL QILISH JARAYONINI TAHLIL QILISH

**Mardanov Sardorbek Zafar o'g'li**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti*

*Ijtimoiy Fanlar Fakulteti Siyosatshunoslik yo'naliishi*

*2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada qaror qabul qilish jarayoning davlat boshqaruvi va menejmentdagi hamda ichki va tashqi siyosatdagi hamda jahon siyosatidagi o'rniغا baho beriladi. Maqolada keltirilgan har bir izoh va tushunchalar mazkur maqolaning mohiyatini ochadi. Shuningdek, maqoladagi asosiy e'tibor ham qaror qabul qilish jarayoniga tahliliy yondashib, ko'p tomonlama muammolarning va rejalashtirilgan siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy dasturlarning amalga oshish dinamikasini ko'rsatadi. Maqolada qarorning oqibati nimaga bog'liqligi ham yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Qaror qabul qilish, tahlil, davlat boshqaruvi, siyosat, rahbar, xodim, muammo, informatsiya, vaziyat, tizim, nazorat qilish, ijroni ta'minlash, obyekt, yechim.*

### **QAROR QABUL QILISH**

Bu muayyan maqsadga yo'naltirilgan va muammoni yechishga qaratilgan, tashkiliy ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy jarayondir. Qaror informatsiya to'plash va muqobil qarorlarni baholash orqali tanlov tartibida amalga oshiriladi

### **QAROR QABUL QILISH BOSQICHLARI**

Boshqaruvda qaror qabul qilish nazariyasi bo'yicha qaror qabul qilishning zaruratinini muammoli vaziyatlar keltirib chiqarishini tasdiqlaydi. Qaror qabul qilish ma'lum bir muammoli vaziyatni hal etish jarayoni ekani, mazkur jarayonda muammoning yechimini topish uchun qaror qabul qilish bilan masalaga yakun yasalishi boshqaruvda juda ko'p uchraydi. Qaror qabul qilish nazariyasi tashkilot xodimlarining muammolarni yechish yo'lidagi qonuniyatlarini, shuningdek istalgan natijaga erishish yo'llarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Qaror qabul qilish quyidagi tarkibiy qismlarga ajratiladi:

1. Qaror qabul qilish.
2. Qarorni bajarish uchun yo'llash.
3. Ijro sharoitini yaratish.
4. Nazoratni amalga oshirish.

Boshqarish jarayonida doimo biron-bir masalani hal qilishga to'g'ri keladi. Qaror qabul qilish jarayonini vaziyatli tahlil, zarur ma'lumotlarni to'plash,

mumkin bo'lgan qarorlarni shakllantirish, qarorlarni baholash mezonlarini izlab topish, qarorlarni to'g'ri va maqsadli baholash, eng maqbul qarorlarni amaliyotga tadbiq etish, qarorning natijasini baholash, ijro va nazoratini monitoring qilib borish bosqichlari tashkil etadi. Bu borada rus olimlardan V. V. Drujinin va D. S. Kontorovlar jarayonlarda maqbul qaror qabul qilish vaziyatlarining uchta o'ziga xos tipini taklif etadilar:

- muntazam va aniq axborotga asoslangan informatsion qaror;
- ma'lum muammo va vaziyatning hal qilinishiga mustahkam asos deb belgilanadigan operativ (tezkor qaror);
- tashkilot rahbarining, xodimlarning, mehnat faoliyatining asosiy bahosini beradigan tashkiliy qarorlar.

Olimlar bu qarashlarini yana bir mucha asoslar bilan izohlaydilar:

- Axborotning muntazam va aniqligiga asoslangan informatsion qaror vaziyatni tashxis qilishdan iborat.

- Operativ qaror muammo yechimi usullarini ishlab chiqishda nima qilish kerakligini o'rgatadi.

- Tashkiliy qaror esa qarorning ijrosi tizimini ko'rsatib beradi.

Yana bir rus olimi T.Tomashevskiy qaror qabul qilish vaziyatlarining to'rtta tipini taklif etadi:

1. **Tanlov vaziyati** – har qanday vaziyatlarda ham inson ma'lumotlarni tanlaydi, tasniflaydi va ma'lum reaksiyalar ko'rsatadi. Tanlov imkoniyati qarorning mazmuniga qarab belgilanishi bu qaror qabul qiluvchigabog'liq.

2. **Murakkab vaziyat** – bittadan ko'p bo'lgan ma'lumot manbalaridan ma'lumot olish vaziyati. Bu holatda ma'lumotlarning haqqoniyligi asosiy vazifani o'taydi.

3. **Afzallik vaziyati** – ikkitadan ko'p bo'lgan har xil ahamiyatga ega bo'lgan tanlovlardan birini tanlash. Qarorning afzalligi uni qanday qabul qilishda va bajarilishining aniq yoki noaniqligida deb ta'rif beradi olim.

4. **Ehtimoliy vaziyatlar** – yetarli bo'lмаган ma'lumotlar bilan ishslash jarayonidagi tanlov. Tavakkalchilikka asoslangan vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarning ijrosi mavhum bo'lib qolmasligi olimning fikrida namoyon bo'lib turibdi. Rus olimlarining yana bir vakili Y. Kozeletskiy qaror qabul qilish vaziyatlarining ikkita tipini taklif etadi:

1. **Yashirin vaziyat** – obyektning holati haqida ko'plab ma'lumotlarning mavjudligi va odamning ulardan qaysi biri haqiqiy ekanligini bilmasligi holati, bu ya'ni bu qarorlar harbiy, tibbiyot sohalarida qabul qilinishi mumkin, oshkorlik ta'minlanmagan vaziyatlardagi qarorlar ko'proq birinchi rahbarning ehtiyyotkorligiga bog'liq bo'ladi.

2. Ochiq vaziyat – noaniqligi bilan xarakterlanadi. Bunda obyektning holati haqida ko‘plab ma’lumotlarning mavjudligi kuzatiladi. Hammaning ko‘z oldidagi jarayonlar aks etgan bunday qarorlar ko‘pchilikning maslahati va taysiyalari orqali qabul qilinishi mumkin.

Qabul qilingan qarorlarning nazorati ham xarakterli. Nazoratning bosh vazifasi qarorlarni ishlab chiqishning berilgan dasturlarining kamchiliklarini o‘z vaqtida aniqlash va uni bartaraf etish uchun choralar belgilashdir. Shu o‘rinda ta’kidlamoq kerakki, faqat nazoratgina qabul qilingan qarorning kuchini yaqqol ifodalay oladi. Nazorat -boshqarish masalalarining eng muhimlaridan biridir. Bunda yuqori turadigan faqat bitta masala bo‘lib, u maqsadni aniqlash va muvofiqlashtirishdir. Agar maqsad bo‘ysunuvchilarga yetib bormasa, unda hech narsani nazorat qilib bo‘lmaydi. Agar rahbar qabul qilgan qarorlarining nazoratini o‘z holiga tashlab qo‘yar ekan, u holda keyingi qarorlari mas’uliyatli xodimlarga yetguncha yo‘lda qolib, o‘z vaqtida bajarilmay qolib ketishi mumkin.

Kuchli tomonlari:	Kuchsiz tomonlari:
<p>1.Qaror qabul qilish jarayoni o‘zining ta’sir etish xususiyatiga ega.</p> <p>2.Qaror qabul qilish jarayoni qaror qabul qiluvchi va qarorni bajaruvchilar munosabatiga asoslanadi.</p> <p>3. Qaror qabul qilish qaror ratsional bo’lsa, muayyan muammoni yechadi.</p>	<p>1.Qaror bir tomonlamalik xususiyatiga ega sababi, bu yerda buyurtmasining manfaatlarini ko’rsatib beradi ( ko‘p hollarda).</p> <p>2. Nazorati va ijrosi bilan bog’liq kamchiliklari bo’lishi mumkin, ya’ni bu yerda qaror qabul qiluvchining professiyasi bilan bog’liq .</p>
Imkoniyatlari:	To’siqlari:
<p>1 Qaror boshqaruvchanlik, yo’naltiruvchanlik, imkoniyatlarga ega.</p> <p>2 Qaror qabul qilishda har bir subyektning ishtirokini ta’minlaydi.</p> <p>3. Muommo delemasini shakllantiradi va uning variantlarini taqdim etadi.</p>	<p>1. Mavjud davlat aparatidagi muayyan uzulishlar keltirib chiqarishi mumkin.</p> <p>2. Manfaatlar artikulyatsiyasi agregatsiyalash jarayonida qaror ning mazmuni kuchsizligi oqibatida muommaning yechimiga yana ortiqcha muommo qo’shishi mumkin ( kuchsiz boshqaruvga ega davlatlarda bo’ladi bu jarayon)</p>

**Qarorning oqibatlari va natijalarining SWOT tahlilida ko‘rinishi**

**Qaror qabul qilishda e’tibor berilishi lozim bo’lgan tartiblar:**

- 1.Qarorni aniqlash;
- 2.Ushbu qarorga tegishli ma'lumotlarni to'plash;
- 3.Qarorning yechimli variantlarini aniqlash;
- 4.Qaror ma'lumotlari uchun dalillarni aniqlash;
- 5.Qaror ma'lumotining muqobil variantlaridan birini tanlash;
- 6.Qaror ijrosini amalga oshirish;
- 7.Qaror va uning oqibatlarini ko'rib chiqish.

**Xulosa:** Demak xulosa o'rnilida shuni ta'kidlashimiz joizki, qaror qabul qilish va uni amalga oshirilishi qaror qabul qiluvchining irodasi, ruhiyati, psixologoyasi, siyosiy-huquqiy madaniyati va manfaati muhim o'ringa ega hisoblanadi. Jarayonning subyekti nafaqat shaxs balki, jahon siyosati subyektlarining ham roli va funksional vazifasi ahamiyatlidir. Siyosatshunoslikda sohasida qaror qabul qilish muayyan maqsadga yo'naltirilgan va ta'sir etuvchi xarakterga ega bo'lgan yaxlit bir natijaga qaratilgan tizim doirasida kechadigan jarayon hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Seven important steps of the decision making process  
<https://asana.com/resources/desisions-making-process>
- 2.What is Management decision making? Techniques and tools simplilearn  
<https://www.simplilearn.com/management-decision-making-article>
- 3.Decision-making process <https://www.umassed.edu/fyem/decision-making/process>
- 4.Boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullari, qaror qabul qilishning individual stili <https://kompmpy.info/boshqaruv-qarorlar-ini-qabul-qilish-qilish.html>
- 5.Dip-shpora.narod.ru/pr.html <https://dip-shpora.narod.ru/pr.html>
- 6.Prinyatiye politicheskix resheniy <https://polit-discourse.ru/articles/901>